“Uzbekistan Airways” AJda Faxriylar kengashi tashkil etildi

2026 17 April

“Uzbekistan Airways” AJda aviatsiya sohasining keksa avlod vakillarining tajribasi va bilimlarini birlashtirish, shuningdek, ularning kompaniyaning ijtimoiy va korporativ hayotidagi ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan maslahat organi – Faxriylar kengashi tashkil etildi.

Kengashning asosiy maqsadi faxriylarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, shuningdek, kasbiy tajribani saqlash va yosh mutaxassislarga yetkazishdan iborat.Kengash o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida, aviakompaniyaning Boshqaruvi va tarkibiy bo‘linmalari bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

O‘zbekiston aviatsiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi faxriysi Abdunabi Abduvaliyev Faxriylar kengashi raisi etib saylandi. O‘zbekiston Qahramoni, ilgari “Uzbekistan Airways” AJning Boeing havo kemasi komandiri bo‘lgan Zarxo‘ja Saidazimov rais o‘rinbosari etib tayinlandi.



Kengash tarkibiga Uzbekistan Airways’ning turli bo‘linmalari va sho‘ba korxonalari faxriylari – o‘z hayotini aviatsiyaga bag‘ishlagan hamda milliy aviakompaniyaning shakllanishi va rivojlanishi boshida turgan insonlar kirdi.

Birinchi yig‘ilish va ish rejalari

15-aprel kuni Faxriylar kengashining birinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi, unda faoliyatning ustuvor yo‘nalishlari, tashkiliy masalalar muhokama qilindi, shuningdek, yaqin va o‘rta muddatli istiqbolga mo‘ljallangan asosiy vazifalar va rejalar belgilab olindi.

Faxriylar va amaldagi xodimlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, kasbiy tajribani saqlash va uzatish, shuningdek, Kengashning kompaniya ijtimoiy va korporativ hayotidagi ishtirokini kengaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.



Yig‘ilish doirasida Kengash a’zolari Boshqaruv raisining ishlab chiqarish bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Umid Husanov bilan uchrashdi. Konstruktiv muloqot davomida faxriylar kompaniyani yanada rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirish, shuningdek, korporativ an’analar va avlodlar davomiyligini mustahkamlashga qaratilgan bir qator tashabbus va takliflarni ilgari surdilar.



Umid Husanov Kengash faoliyatini qo‘llab-quvvatladi, kasbiy merosni asrab-avaylash muhimligini ta’kidladi va belgilangan tashabbuslarni amalga oshirishda har tomonlama yordam berishga tayyorligini bildirdi.

Zamonaviy jarayonlar bilan tanishish

Birinchi yig‘ilish doirasida Kengash a’zolari Uzbekistan Airways Parvozlarni boshqarish markaziga tashrif buyurib, u yerda parvozlar xavfsizligi va samaradorligini ta’minlash bo‘yicha zamonaviy texnologiyalar va jarayonlar bilan tanishdilar.



Faxriylar kengashining tashkil etilishi “Uzbekistan Airways” AJning avlodlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, noyob tajribani saqlab qolish va milliy aviatsiyani yanada rivojlantirishga qaratilgan korporativ madaniyatini rivojlantirishda muhim qadam bo‘ldi.